

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



**“Tasdiqlayman”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
30-iyun 2025-yil**

GLOBALLASHUV ASOSLARI

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60111100 - Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi

Qo‘qon – 2025

Fan/modul kodi Ga1404		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/ modul turi majburiy		Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya soatlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Globallashuv asoslari	60		60	120
2.	I. Fanning mazmuni. Fanni o‘qitishdan maqsad – bo‘lg‘usi pedagoglarga jamiyat hayotining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy sohalarida o‘zaro ta’sir va bog‘liqning kuchayishi sharoitida ro‘y berayotgan globallashuvning mazmun va mohiyatini, salbiy va ijobiy jihatlarini tushuntirish, ularda vatanga sadoqat ruhini tarbiyalab borish. Ta’lim jarayonida globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlarini, uni ta’min etuvchi volsitalar tizimi, bu voqelikka qarshi kurashda ta’lim tizimi oldidagi vazifalar yoritib beriladi. Fanning asosiy vazifalari - globallashuv jarayonining asosiy xususiyatlarini; - globallashuvning salbiy va ijobiy jihatlarini; - globallashuvning ro‘y berishining usul va vositalarini; - globallashuvning namoyon bo‘lish sohalarini; - globallashuvning mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta’sirini - fan va ta’lim globallashuvi sharoitida ta’lim oldidagi vazifalarni; - global ma’naviy tahdidlarga qaoshi yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasidagi vazifalarni o‘rganishdan iborat. Fanning asosiy manbalari: Hozirgi global davyrdagi yuz berayotgan jarayonlar ularniing mazmuni va ta’sir etuvchi kuchi, ularning ijobiy va salbiy ta’siri jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy sohalaridagi global jarayonlar haqida ma’lumot beruvchi qonunlar, davlat qaror va farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlari, nutqlari vasoha mutaxassislarining kitoblari hisoblanadi. Shuningdek globallashuv davrining muammolari ekologik, demografik, urush va tinchlik, sport va global jinoyatlarni o‘rganishda BMTning UPN,PROO dasturlaridan foydalanildi. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Globallashuv asoslari fani dunyoni quyidagi etakchi Universitetlarida o‘qitiladigan Global Studies univ dasturi asosida shakllantirildi. 1. Stanford Universiteti – ARWU ranking 2025 TOP da 2-o‘rinni, THE ranking 2025 TOPda 6- o‘rinni, QS reyting 2025 TOPda 6 o‘rinni egallaydi. Global Studies Minor Stanford Universitetining Global Studies minor dasturida quyidagi kurslar mavjud: • GLOBAL 101: Critical Issues in Global Affairs Bu kurs global iqtisodiyot, siyosat, ekologiya va madaniyat kabi global muammolarni tahlil qilishga qaratilgan. bulletin.stanford.edu. Ushbu kursda globalizm va globallashuvni tarixiy va zamonaviy kontekstlarda ko‘rib chiqilgan; turli milliy-mintaqaviy kontekstlardagi nazariy asoslar va bir qator amaliy tadqiqotlar bilan tahlil qilingan; va ulardan global iqtisodiy, siyosiy, ekologik va ijtimoiy-madaniy tarmoqlar, tendentsiyalar va muammolarni tahlil qilish, mahalliy				

va global o'zaro munosabatlarni o'rganish uchun foydalanilgan. Kursda inson tajribasi qanchalik universal ekanligini va bu savolga javob insoniyat kelajagiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini ko'rib chiqilgan.

- **INTNLREL 102: History of the International System since 1914**
Bu kurs xalqaro tizimning 20-asr boshidan hozirgi kungacha bo'lgan tarixini o'rganadi.
- **INTNLREL 135A: International Environmental Law and Policy: Oceans and Climate Change**
Bu seminar xalqaro ekologik qonun va siyosatni, ayniqsa okeanlar va iqlim o'zgarishi masalalarini o'rganadi.

2. Harvard Universiteti – ARWU ranking 2025 TOP da 1-o'rinni, THE ranking 2025 TOPda 3- o'rinni, QS reyting 2025 TOPda 4 o'rinni egallaydi. Global Studies dasturi Harvard Universitetining Global Studies dasturida Fanlararo va global tadqiqotlar (Id-Global) — fanlararo ishlar orqali yoshlarni zamonamizning dolzarb global muammolarini tushunishga tayyorlashga qiziqqan olimlar va o'qituvchilarni ma'lumot berishga qaratilgan tadqiqot loyihalari to'plamidir. Dasturda quyidagi mavzular mavjud:

- **Global siyosat va iqtisodiyot**
Xalqaro siyosat va iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va ularning global tizimdagi o'rni.
- **Madaniyatlararo muloqot**
Turli madaniyatlar o'rtasidagi muloqot va uning global jamiyatdagi roli.
- **Barqaror rivojlanish va ekologiya**
Barqaror rivojlanish maqsadlari va ekologik muammolarni hal qilish yo'llari

3. Oxford Universiteti – ARWU ranking 2025 TOP da 6-o'rinni, THE ranking 2025 TOPda 1- o'rinni, QS reyting 2025 TOPda 3- o'rinni egallaydi. Global Studies dasturi Oxford Universitetining Global Studies dasturida quyidagi mavzular mavjud:

- **Global siyosat va xavfsizlik**
Xalqaro siyosat va xavfsizlik masalalari, ularning global tizimdagi o'rni.
- **Iqtisodiyot va rivojlanish**
Global iqtisodiyot va rivojlanish masalalari, ularni tahlil qilish usullari.
- **Madaniyat va identitet**
Madaniyat va identifikatsiyasining global jamiyatdagi roli va o'zgarishlari o'rganiladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I – MODUL. Globallashuvning mohiyati va jamiyat hayotida namoyon bo'lish sohalari.

1-mavzu. “Globallashuv asoslari” fanining predmeti, ob’ekti, maqsad va vazifalari

Jahon miqyosida ro'y berayotgan globallashuv jarayonlari va uning o'rganishning ilmiy-nazariy zaruriyati. «Globallashuv asoslari» fanining tadqiqot doirasi, uning maqsad-vazifalari, u xalq etishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar. Dunyoning hozirgi mafkuraviy manzarasi. Globallashuvning nazariy asoslari. Globallashuv universallashtirish jarayoni sifatida.

Globallashuv tushunchasi. Globallashuvning asosiy xususiyatlari va namoyon bo'lish yo'llari. Globallashuv amalga oshirishining turli xil vositalari. Globallashuv yuz berishida internet, badiiy adabiyot, OAV, ta'lim, hamkorlik va boshqalar.

2-mavzu. Globallashuvning milliy rivojlanishga o'tkazayotgan ta'siri va uning oqibatlari

Globallashuv universallashuv jarayoni sifatida. Dunyoning xozirgi mafkuraviy manzarasi. Globallashuv to'liqlari. Globallashuvning asosiy davrlari. Globallashuvga bozor munosabatining ta'siri. Globallashuv hayotning gomogenezatsiyasi sifatida. Globallashuvning milliy iqtisodiy siyosat bilan aloqadorligi. Globallashuv va dunyoning yo'nalishi masalasi. Globallashuv fenomen sifatida. Globallashuv fenomeni. Globallashuvning milliy rivojlanishga o'tkazayotgan ta'siri. Sh.Mirziyoevning 2016 yil 18 oktabrda IKT TIV kengashi 43 sessiyasida nutqida g'oyaviy tahdidlar masalasi (Ta'lim va ma'rifat- tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l).

3-mavzu. Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlar

Globallashuvning jamiyat hayotidagi ijobiy tomonlari. Globallashuvning jamiyat hayotidagi salbiy tomonlari. Globallashuv va Ilm fan, texnika taraqqiyoti masalalari. Insoniyat hayotida jamiyat hayotining turli sohalarida hamkorlikning kuchayishi, uning turli jihatlar. Insoniyatga tahdidlar va ularni hal etishda hamkorlikning roli.

4-mavzu. Siyosiy jarayonlarning globallashuvi

Siyosiy jarayonlardagi integratsiya. O'zbekiston va jahon. O'zbekiston va BMT. Milliy ma'naviy metosni asrashda YuNESKO va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik. Globallashuv jarayonlari tizimida demokratiya. Demokratiya, sharqona demokratiya tushunchalari. Demokratiya va ma'naviyat. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish borasidagi vazifalar. Siyosiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida milliy manfaatlar. Harakatlar strategiyasi va yaqin qo'shnichilikka asoslangan tashqi siyosatning mohiyati.

5-mavzu. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi va milliy manfaatlar

Xalqaro mehnat taqsimoti. Insoniyat ehtiyojlarining o'sib borishi. Tabiiy qazilmalarning qazib olish, qayta ishlash, takror ishlab chiqarishda hamkorlik. Jahon ho'jaligi. Transmilliy korporatsiyalar. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvida xalqaro tashkilotlarning roli. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning dolzarb masalalari. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida O'zbekiston manfaatlar.

6-mavzu. Madaniyat sohasidagi globallashuvning mohiyati

Madaniyat sohasidagi globallashuv jarayonlarining mazmun-mohiyati. Madaniy muammolari va milliy-ma'naviy qadriyatlarning saqlash zaruriyati. Madaniy globallashuvga axborot texnologiyalarining ta'siri. Globallashuv sharoitida ta'lim sohasidagi vazifalar. «Ommaviy madaniyat» ko'rinishidagi mafkuraviy tazyiqlar. Madaniy jarayonlarning globallashuvi sharoitida ta'lim tizimi oldidagi vazifalar. Madaniy jarayonlarning globallashuvi sharoitida milliy merosni asrash masalalari.

7-mavzu. Globallashuv va axborot texnologiyalari

Axborot texnologiyalari globallashuvning o'ziga xos xususiyatlari. Globallashuvni ta'min etuvchi axborot vositalari. Internet axborot globallashuvining o'ziga xos vositasi. Jamiyat axborotlashuvining global tendensiyalari. Axborotlashgan jamiyatda global muammolarni hal qilish yo'llari. Elektron hukumat shakllanishining globallashuvi va uning salbiy tomonlari. Axborot texnologiyalarining globallashuvi sharoitida axborot xavfsizligi masalalari.

8-mavzu. Dinlararo munosabatlarning globallashuvi

Dinning madaniyat fenomeni sifatida o'ziga xos xususiyatlari. Islom dinida globallashuvning talqini. So'fizmda global muammolarning ko'tarilishi. Dinlarning rivojiga globallashuvning ta'siri. Din globallashuvining mezonlari. Din globallashuvida xalqning iroda va erkinligi masalasi. Din o'zaro aloqasining o'ziga xos xususiyatlari. Globallashuvning an'anaviy dinga ta'siri. Diniy jarayonlarning globallashuvi sharoitida diniy bag'rikenglikni asrash masalalari. Shavkat Mirziyoevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqidan kelib chiqadigan vazifalar.

II – MODUL. Globallashuvning milliy taraqqiyotga ta'siri va yoshlar tarbiyasi masalalari

9-mavzu. Fan va ta'limning globallashuvi sharoitida g'oyaviy tarbiya masalalari

Hozirgi davr fanining global imkoniyatlari. Globallashuv sharoitidagi fanning funksiyalari; tabiiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchanlik funksiyasi; sotsiumning atrof muhitga optik xulk-atvorini shakllantiruvchi variativ funksiyasi; fanning global tizimlarini kuzatuvchisi va ijtimoiy, tabiiy jarayonlarining nazoratchisi sifatidagi monitor funksiyasi; atrof-muhit xaqidagi olgan bilim va axborot beruvchi informativ funksiyasi. Ta'lim globallashuvining ziddiyatli xarakteri. Iqtisodning bilimga bog'liqligi-yagona ta'lim tizimini yaratishning zarurati. Ta'lim va tarbiyaning global bozor iqtisodi sharoitiga moslashishining zarurligi. Ta'limning globallashuvi-mamlakatning milliy manfaatlariga jiddiy yondashuvining muhim omili. Ta'limning rivojlanishida axborotlashuvning roli. Ta'limning globallashuvida internet va masofali o'tishning roli. Ta'lim globallashuvining rivojlangan industrial davlatlar va uchinchi darajali mamlakatlar ziddiyatining keskinlashuvi bilan bog'liqligi. Milliy maktab ta'lim tizimida vorisiylikni ta'minlash, mul'timadaniy universitet ta'limini rivojlantirish omillari. Ta'limning globallashuvida o'quv dasturlaridagi muvofiqlikning ahamiyati.

10-mavzu. Sportning globallashuvi

Sportning global jarayonga aylanishining o'ziga xos xususiyatlari. Sport millatlar va davlatlararo o'zaro aloqalarni o'rnatish vositasi. Sportning globallashuviga olimpiya xarakatining ta'siri. Olimpiya xarakatining transmadaniy va transmilliy harakat sifatida xalqaro sport musobaqalari orqali mafkurasini insoniyat ongiga etkazishdagi roli. Sport globallashuvining ijobiy xarakteri. Sport globallashuvining salbiy xususiyatlari. Sportning globallashuvida gegemoniyaning

namoyon bo'lishi. Sport barcha uchun xarakatining o'ziga xos xususiyatlari. Nogironlar sporti globallashuvining ma'naviy axloqiy xarakteri. Sportning ijtimoiy-madaniy maqsadlariga rivojlantirishning global ahamiyati.

11-mavzu. Jinoyatning globallashuvi

Tashkillashgan jinoyatning global masshtablari. Texnik modernizatsiyalashgan jinoyat: sputnik aloqa internet, hozirgi zamon etnik vositalari. Giyohvandlik moddalarni tarqatish va iste'mol qilishning globallashuvi. Qurol savdosi diniy etnik asosdagi lokal kanfliktlarning natijasi. Terrorizm globallashuvining qurol savdosiga ta'siri. Qurol savdosi jinoyat globallashuvidagi yangi bo'g'in. Nolegal migratsiya va uning globallashuvi. Odam savdosi – trafikaning globallashuvi. Antikvariat bozorining globallashuvi. Jinoyatning globallashuvi dunyo xufyona iqtisodi rivojlanishining asosiy vositasi. Jinoyat globallashuviga qarshi kurash vositalari.

12-mavzu. Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o'zlikni anglash masalalari

Globallashuv jarayonlarida millat. Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o'zlikni anglash masalalari. Globallashuvning millat xayotida namoyon bo'lish xususiyatlari. Demografik globallashuv, ma'naviyat va qadriyatlar. Ommaviy madaniyat va milliy o'zlikni anglash. O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyasi davrida milliy o'zlikni anglash masalalari..

13-mavzu. Ma'naviy tahdidlarning namoyon bo'lish xususiyatlari

Ma'naviy tahdidlar tushunchasi. Ma'naviy tahdidlarning namoyon bo'lish xususiyatlari. I.Karimovning «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» asari asosida ma'naviy tahdidlarga qarshi kurash yo'llari va vositalari. Ma'naviy tahdidlarga qarshi muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkinligi. Ma'naviy tahdidlarni oldini olishda oila va mahallaning o'рни

14-mavzu. Milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy negizlari

Taraqqiyot yo'lining zaminlari. Milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy negizlari. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, o'z imkoniyatlarini erkin namoyon etish masalalari. Xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik illatlariga qarshi kurashning axloqiy jihatlari. Sh.M.Mirziyoevning "Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yaanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik" asarida jamiyatda ma'naviy muhitni asrash masalalari.

15-mavzu. Mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikni shakllantirish vazifalari

Bugung kundagi dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar. Xalqimizning ma'naviy olamini turli g'oyaviy tahdidlardan asrashning dolzarb vazifalari. Ma'naviy

tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikni shakllantirish davr talabi ekanligi. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish zaruriyati.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Globallashuv asoslari" fanining predmeti, obekti, maqsad va vazifalari
2. Globallashuvning milliy rivojlanishga o'tkazayotgan ta'siri va uning oqibatlari
3. Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari
4. Siyosiy jarayonlarning globallashuvi
5. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi va milliy manfaatlar
6. Madaniyat sohasidagi globallashuvning mohiyati
7. Globallashuv va axborot texnologiyalari
8. Dinlararo munosabatlarning globallashuvi
10. Sportning globallashuvi
11. Jinoyatning globallashuvi
12. Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o'zlikni anglash masalalari
13. Ma'naviy tahdidlarning namoyon bo'lish xususiyatlari
14. Milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy negizlari
15. Mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikni shakllantirish vazifalari

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
 - dokladlar tayyorlash;
 - kurs ishi yozish;
 - konspekt yozish;
 - glossariy tuzish;
 - individual va guruhli o'quv loyihasi;
 - keys-topshiriqlarini bajarish;
 - mavzuli portfoliolar tuzish;
 - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
 - manbaalar bilan ishlash;
 - infografika tuzish;
 - chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
 - multimediali taqdimotlar yaratish;
 - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
 - darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;
- ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

	1. Sh.M.Mirziyoyevning "Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yaanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik" asarida jamiyatda ma'naviy muhitni asrash masalalari. 2. Dunyo miqyosida ro'y berayotgan globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari. 3. Milliy ma'naviy metosni asrashda YunESKO va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik. 4. Transmilliy korporatsiyalar. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida O'zbekiston manfaatlari. 5. Madaniy muammolari va milliy-ma'naviy qadriyatlarning saqlash zaruriyati. 6. Madaniy jarayonlarning globallashuvi sharoitida ta'lim tizimi oldidagi vazifalar. 7. Axborot texnologiyalari globallashuvning o'ziga xos xususiyatlari. 8. Dinning madaniyat fenomeni sifatida o'ziga xos xususiyatlari. 9. Migratsiya jarayonlari globallashuvining yangi va tabiiy resurslarni egallashdagi roli. 10. Axloqiy munosabatlarning globallashuvi insoniyat evolyusiyasining qonuniyati sifatida. 11. Ta'limning globallashuvi-mamlakatning milliy manfaatlariga jiddiy yondashuvining muhim omili. 12. Sport millatlar va davlatlararo o'zaro aloqalarni o'rnatish vositasi. 13. Olimpiya xarakatining transmadaniy va transmilliy harakat sifatida xalqaro sport musobaqalari orqali o'z qarashi va mafkurasini insoniyat ongiga etkazishdagi roli. 14. Xalqaro miqyosda ro'y berayotgan global inqirozlar davrida yuksak ma'naviyatning dolzarbligi masalalari. 15. Mafkuraviy taxdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikni shakllantirish davr talaba ekanligi.
3.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • globallashuv tushunchasi, mohiyati, jamiyat hayotida namoyon bo'lish xususiyatlari, globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari, jamiyat hayotidagi globallashuvning namoyon bo'lish xususiyatlari, globallashuvning ma'naviyatga ta'siri haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) • "Globallashuv asoslari" fani oldidagi vazifalar, globallashuv jamiyat hayotida namoyon bo'lish xususiyatlari, jamiyat hayotida globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari, globallashuvning milliy rivojlanishga o'tkazayotgan ta'siri va uning oqibatlari, fan va ta'limning globallashuvi sharoitida g'oyaviy tarbiya masalalari, globallashuv jarayonlarida millat va milliy o'zlikni anglash masalalari, global inqirozlar

	davrida yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vazifalarini tushuntirib bera olish kabi <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma).</i> • “Ommaviy madaniyat” ko'rinishidagi turli ma'naviy tahdidlardan ko'zlangan maqsadlarni anglab yetish, milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy negizlari tahlil etish, mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikni shakllantirish vazifalarini amalda qo'llay bilish <i>ko'niklariga ega bo'lishi lozim. (malaka)</i>
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliy nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqlarni bajarish
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B. Globallashuv asoslari. O'quv qo'llanma. T.-2020 2. Jumaniyozov X.S., Rasulova A.M. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. O'quv qo'llanma. T.-2019. 3. Otamurotov S. Globallashuv va millat. – T.: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2008 yil. 4. Qahhorova Sh. Global ma'naviyat – globallashuvning g'oyaviy asosi. – T.: Tafakkur nashriyoti, 2009 yil. Qo'shimcha adabiyotlar: 5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2017. 6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan Yeng oliy bahodir. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2018 7. Karimov I. A. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Asarlar, 6-jild. –T.: «O'zbekiston», 1998. 8. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2018. 9. Abdullatif qori Xoshimjon qori o'g'li. Zalolatga ketmang! Xizbut-tahrir fitnasidan ogoh bo'ling. –T.: «Movarounnahr», 2003. 10. Abdurahmonov A., Boydadaev M., Bozorov E. Din va siyosat. Namangan, «Namangan», 2001. 11. Boboyev H., Normatov K. Milliy davlatchilik haqida. –T.: «Yozuvchi», 1999.

	12. Gafarli M.S., Kasaev A.Ch. Rivojlanishning o‘zbek modeli: tinchlik va barqarorlik – taraqqiyot asosi. –T.: «O‘zbekiston», 2001. 13. Ochildiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. - T.: «Muharrir», 2009. 14. Otamurotov S. Globallashuv va millat. T. 2008. 15. Otamurotov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. T.2013. 16. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. –T.: “Akademiya”, 2008. 17. Terrorizm – taraqqiyot kushandasi. Toshkent, 2002. 18. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatlar. T.: “Ma’naviyat”, 2006. 19. "Globalization: A Very Short Introduction" – Manfred B. Steger (Oxford University Press, 2020) 20. "The Globalization of World Politics" – John Baylis, Steve Smith, Patricia Owens (Oxford University Press, 2017) 21. "Globalization and Its Discontents" – Joseph E. Stiglitz (W.W. Norton & Company, 2002) 22. "The Post-American World" – Fareed Zakaria (W.W. Norton & Company, 2008) 23. "Globalization and Its Impact on the Developing Countries" – Social Watch 19 сентября 2001 http://www.socialwatch.org/ Axborot manbalari: 1. http://www.lex.uz 2. http://www.senat.uz 3. http://www.gov.uz 4. http://www.mtdp.uz 7. http://www.parliament.uz 8. http://www.ziynet.uz
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun ma’sul va dastur mualliflari: M.M.Aminova – QDUI, “Milliy g’oya va huquq” kafedrası dotsenti, falsafa fanlar nomzodi. Z.D.Boytemirova – QDU, “Milliy g’oya va huquq” kafedrası mudiri
9.	Taqrizchilar: O.K.Komilov - Andijon davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası professori. T.f.d M.Mirmaqsudov – Qo‘qon shahar 10 umumta’lim maktabi direktori